

DO'STLIK HAQIDAGI G'OYALAR BUYUK AJDODLARIMIZ NIGOHIDA**K.M.Axmedov****Ipak Yo'li Innovatsiyalar Universiteti dotsenti, p.f.n.****G.K.Sherbutayeva****Ohangaron tumanidagi 41-umum ta'lim maktabining****ona tili va adabiyoti o'qituvchisi****<https://doi.org/10.5281/zenodo.14958125>***Ezgu xulq do'stlikni,**Yomon xulq dushmanlikni keltiradi.***Аннотация.**

В развития человечество есть такие понятия которые никогда не потеряет смысл своего существования. Это понятие дружба. Оно в покон веков изучается как смыслообразующее показатель человеческого общества. Про дружбы высказано множество мысли в которых выражено золотые слова. В них выражено великие достояние во- всех народов и народностей. В данной статье мы привели лишь некоторое взгляды нашего великого предка Ибн Сины о дружбе в которых высказано гениальное идей мыслителя о дружбе и выборе друзей.

Annotatsiya.

Insoniyat taraqqiyotida shunday tushunchalar mavjudki hech qachon o'z ma'nosini yo'qotmaydi. Bu do'stlik tushunchasi. Asrlar davomida u insoniyat jamiyatining enr muhim ko'rsatkichi sifatida o'rganiladi. Do'stlik haqida ko'plab fikrlar bildirilgan va oltin so'zlar ifodalangan. Ularda barcha xalqlar va millatlarning buyuk ma'naviy boyliklari ifoda etilgan. Ushbu maqolada biz buyuk ajdodimiz Ibn Sinoning do'stlik haqidagi ba'zi fikrlarini keltirdik, unda mutafakkirning do'stlik va do'stlarni tanlash haqidagi ajoyib fikrlari bayon etilgan.

Kalit so'zlar: Do'stlik, odob-axloq, ijobiy fazilat, xayr-ehson, mehr-muhabbat, hikmatli so'zlar, mehr-shafqat, xushtabiat, haqiqiy do'stlik, yagona maqsad va g'oyaviy birlik, rivoyat, guldan nozik, po'lattan qattiq, dovuldan kuchli, sadoqat.

Kirish

Insoniyat taraqqiyotining barcha bosqichlarida do'stlik xaqidagi fikrlar doimo ulug'lanib kelingan. Do'stlik-inson axloqining bebaho go'zalligi, ijobiy fazilatlar gavhari. Insondagi barcha go'zal fazilatlar bir marvarid shodasi bo'lsa, uning dur-gavhari chin insoniy muhabbatga asoslangan do'stlikdir. Do'stlik tufayli xonadonimiz obod, dunyoda tinchlik va dasturxonimizda to'kinlik hukmron. SHuning uchun ham dono kishilar hamma jamiyatda ham do'stlikni ulug'lab, qadrlab kelganlar va odamlarni do'st bo'lib yashashga, ko'proq do'st orttirishga undaganlar.

Rasululloh (sallollohu alayhi vasallam) bunday deganlar: «Bir-biringizga hayr-ehsonli, mehr-muhabbatli bo'lib, qo'l berib so'rashib yuringlar, shunda dillaringizdagi g'illu g'amlik ketadi». Do'stlik insonning kuchiga kuch, qudratiga qudrat qo'shadigan, kishini baxtli qiladigan, hayotini bezaydigan eng muhim omillardandir.

Xalqimiz o'rtasida do'stlik munosabatlariga bag'ishlab juda ko'p hikmatlm so'zlar yaratilganki, ular orqali do'stlikning kishi hayotida tutgan o'rni ifoda etilgan. Bu ma'noli hikmatli so'zlarda el-ulusning bir umrli orzu-umidlari yashaydi. Mazkur hikmatli so'zlarda do'stlik va o'rtoqlikka xos bo'lgan eng yaxshi xislatlar ifodalanganki, biz o'z hayotimizda ularga har qadamda duch kelib turamiz. Do'stlik-birodarlikning eng yaxshi xislatlaridan biri kishilarga mehr-shafqatli bo'lishni anglatadi.

Materiallar, usullar, natijalar.

Do'stlik xaqidagi fikrlar nafaqat zamonamizda balki xamma asrlarda xam dolzarb xisoblangan. Buuk bobokalonlarimiz do'stlik xaqida dono-dono fikrlarni ilgari surganlar. Jumladan buuk ajdodimiz Abu Ali ibn Sino do'stlik xaqida ko'plab oltinga teng xikmatlarni ilgari so'rgan.

Abu Ali ibn Sinoning fikricha, insonda axloqiy sifatlarning kamol topishida yaxshi, xushtabiat, ilmi do'st katta o'rin tutadi. «Yaxshi do'st oynadir,— deydi olim, — unda kishining butun yaxshi yoki yomon tomonlari aks etadi». YAxshi do'st o'z vaqtida o'rtog'ining yomon qiliqlarini ko'rsatadi, o'zining maslahati va xulq-odobi bilan ularni bartaraf etishga yordam beradi.

Ibn Sino do'stlikning uch xil ko'rinishini aytib o'tadi:

- Haqiqiy do'stlik - bunda do'stlar har qanday sharoitda, jumladan hayotda roz bergan eng og'ir damlarda ham birga bo'ladilar.
- Boylik, amal-daraja tufayli bog'langan do'stlik.
- YAgona maqsad va g'oyaviy birlik asosidagi do'stlik.

Bulardan birinchi va uchinchi mustahkam, haqiqiy va buzilmas, ikkinchi esa, muvaqqat va mustahkam bo'lmagan, soxta do'stlik ekanini ta'kidlaydi. Bu o'rinda, do'st va o'rtoq orttirish haqida bir rivoyat keltirib o'tishni lozim topdik.

Rivoyat. Bir kuni Abu Husayn Abdulloh voyaga eta boshlagan o'g'li Ibn Sinoni yoniga chaqirib:

-Siz shahzodalarni davolash uchun saroyga ko'p qatnamoqdasiz. Xohlardimki, o'zingiz saroy qursangiz. Siz qurgan saroy shahar va qishloqlarda son-sanoqsiz bo'lsa. Ibn Sino «xo'p» deb otasining oldidan chiqibdi-yo, o'ylanib qolibdi. Ko'plab saroy qurish uchun pulni qayerdan olishga boshi qotibdi. Oradan bir necha kun o'tgach, bir donishmand oqsoqolning oldiga boribdi va otasining istagini aytibdi. SHunda oqsoqol Buxoroi sharifga atrofdan odamlar ko'p keladi. Ana shu odamlar bilan ko'ngil bog'lang, yaxshilik qiling, shaharu qishloqlarni aylaning, bemorlarni davolang, ko'ngil yaralariga malham bo'ling. Siz yaxshilik qilgan behisob odamlarning xonadoni siz uchun behisob saroy bo'ladi. Qachon borsangiz siz uchun ochiq turadi. Otangiz ana shuni orzu qilibdi. Ushbu rivoyatdan ko'rinib turibdiki do'stlik bu bir saroy bulib ushbu saroyning eshigi xar doym ochiq turishi kerak va u xar bir insonga yaxshilik,ezgulik urug'ini sepishi kerak degan xulosaga kelish mumkin.

Masalan, bir kishi do'stiga ko'p yaxshiliklar qilgan deylik: qiynalib qolganda uni samimiy qo'llab-quvvatlagan, ko'nglini ko'targan, moddiy yordam berib turgan. Yaxshilik ko'rgan kishi do'stining bu yaxshiliklarini unutgani yo'q, ammo yaxshilikka yaxshilik bilan javob berishga hali uning qurbi etmaydi. Nima bo'libdi-yo, do'stining ko'ngliga yoqmaydigan bir gap aytib, uni ranjitib qo'yibdi. SHundan so'ng yaxshilik qilgan odam ko'pchilik ichida: «Falonchiga shuncha yaxshiliklar qildim, bilmadi, nonko'rlik qildi», - deb shikoyat qilibdi. SHunda yaxshilik ko'rgan odam xijolatda qoladi. «Nega o'sha narsalarni oldim», deb afsuslanadi. Xalqimizda «Minnatli oshni it ham ichmaydi», - deb bekorga aytilmagan.

Bu o'rinda do'stiga yaxshilik qilgan odam andishasizlik qilyapti. Agar kishi odamgarchilikni, o'zaro hamkorlikni, do'stlikni bir yoqlama tushunsa, u do'stini tez ranjitib qo'yadi. YOrdam ko'rgan kishi hatto shu yordamni unutib qo'yganda ham buni uning roziga solish odobdan emas.

Har bir yaxshilik beminnat, beta'ma bo'lganda ma'quldir. Aytadilarku, «Yaxshilikni baliqqa qil, baliq bilmasa xoliq biladi» deb. Vijdonan aytganda do'stining qilgan yaxshiligini bilish, unga

minnatdorchilik izhor qilish, yaxshilik-ka yaxshilik bilan javob qaytarish yaxshilar ishidir. Do'stlik guldin nozik, po'lattan qattiq, dovuldan kuchli, deyishadi. Do'stlik o'zaro munosabatda samimiylilikni, ziyraklikni, rostgo'ylikni, to'g'rilikni talab etadi.

Xulosa

Ibn Sino do'stlikni nafaqat ijtimoiy munosabatlar, balki ma'naviy, axloqiy va diniy nuqtai nazardan ham qadrlagan. U, Islomning yuksak axloqiy me'yorlarini o'z ichiga olgan do'stlikni, o'zaro ishonch, sadoqat, yordam, haqiqatni aytish va bir-birini qo'llab-quvvatlash bilan mustahkamlash zarurligini ta'kidlagan.

Xulosa qilib allomaning ta'lim va ta'rbiya jarayonida aqliy tarbiya, odob, axloq tarbiyasi shaxs kamolatida, bilimlarni o'zlashtirishda asosiy ahamiyatga ega ekanligini o'z asarlarida ilmiy ravishda asoslab bergan. Ibn Sinoning do'stlik haqidari rivoyatlardan shuni anglash mumkinki do'stlik bu kata saroy va eshigi dfoimo lang ochiq bo'lishi kerak. Ushbu saroyda qanday do'st tanlash insonning o'ziga bog'liq degan dono fikrlari hozirgi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Ibn Sinoning do'stlik haqidari oltinga tehg iboralari insoniyat madaniyatining rivojiga ulkan hissa qo'shdi. Shuning uchun ham Ibn Sino jahon madaniyatining buyuk siymosi, insoniyat hurmat qilgan alloma, buyuk tabib, faylasuf, tabiatshunos, insonshunos, mashhur ensiklopedist, ta'lim va ta'rbiya ilmiga asos solgan mutafakkur sifatida butun jahon tan oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar/Используемая литература/References:

1. Избранные произведения мыслителей стран Ближ. и Ср. Востока. М., 1961.
2. Ma'naviyat yulduzlari: (Markaziy Osiyolik mashhur siymolar, allomalar, adiblar) // To'plovchi va mas'ul muharrir: M.M.Xayrullayev. - To'ldirilgan qayta nashr. - T.: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashr. 2001. - 408 b.
3. A.V. Sagadaev. Ibn Sina. (Aveçenna). M.: Мысль. - 1985.
4. G.Niyozov, K.M.Axmedov, Q.T.Tojiboyev. Sharq allomalari va marifatparvar adiblarining barkamol avlod tarbiyasiga oid ma'naviy-axloqiy qarashlari. - T.: O'zbekiston NMIU, 2010. - 88 b.
5. T.B.Norimbetov. Sharq allomalari asarlarida bilimga qiziqishni shakllantirishda oilaning o'rni haqida fikrlar. - T.: "Oyla" Ilmiy-amaliy markazi konferentsiyasi maqolalar to'plavi, 2018. - 262-265 betlar.
6. Do'st haqida 100 so'z. Nashrga tayyorlovchilar: A.Tilabov, M.Ablayev. - T.: "Sanostandart" nashriyoti, 2011. - 36 bet.
7. T.B.Norimbetov., K.M.Axmedov., N.T.Norimbetova. Abu Ali Ibn Sinoning ta'lim ta'rbiya jarayonida aqliy tarbiya, odob - axloq va shaxs kamolati haqidagi fikrlari. Ilm-fan xabarnomasi jur. №2 2025y. 52-55 betlar.